



SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING ISHLAB CHIQRISH VA XIZMATLAR SOHASIDAGI MEHNAT UNUMDORLIGIGA TA'SIRI.

Andijon davlat universiteti

Huquq-iqtisod fakulteti

Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

Mamadaliyeva Muattarxon.

Annotatsiya: ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining O'zbekistonda ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidagi mehnat unumdorligiga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida SI texnologiyalarini joriy etishning samaradorlikka, resurslardan foydalanish va ish jarayonlarini optimallashtirishga ta'siri ko'rib chiqiladi. Sun'iy intellekt sohasidagi qator yangilanish va o'zgarishlar xalqaro maydon bo'ylab ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat bozorida bir qancha o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. SI rivojlanishi natijasida bir qator sohalarga yangilanishlar kiritilishi iqtisodiyotga imkoniyatlar yaratayotgan bo'lsa, bir tomondan esa bu mehnat bozoridagi ayrim sohalarning yo'q bo'lib ketishiga tahdid solmoqda. Tadqiqot natijalari sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etish mehnat unumdorligini oshirishning muhim omili ekanligini asoslab beradi.

Kirish so'zlar: sun'iy intellekt, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish, xizmatlar sohasi, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ влияния технологий искусственного интеллекта (ИИ) на производительность труда в производственном и сервисном секторах Узбекистана. В рамках исследования рассматривается влияние внедрения технологий ИИ на эффективность, использование ресурсов и оптимизацию рабочих процессов. Ряд инноваций и



изменений в области искусственного интеллекта приводит к ряду социальных, экономических и трудовых изменений на международной арене. В результате развития ИИ внедрение инноваций в различных секторах создает возможности для экономики, одновременно представляя угрозу для отдельных сфер рынка труда. Результаты исследования обосновывают, что внедрение технологий искусственного интеллекта является важным фактором повышения производительности труда.

Ключевые слова: искусственный интеллект, производительность труда, производство, сфера услуг, экономическая эффективность.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the impact of artificial intelligence (AI) technologies on labor productivity in the production and service sectors in Uzbekistan. Within the scope of the study, the effects of implementing AI technologies on efficiency, resource utilization, and optimization of work processes are examined. A number of innovations and changes in the field of artificial intelligence are causing several social, economic, and labor market transformations internationally. As a result of AI development, the introduction of innovations in various sectors creates opportunities for the economy, while at the same time posing a threat to certain areas of the labor market. The results of the study justify that the implementation of artificial intelligence technologies is an important factor in enhancing labor productivity.

Keywords: artificial intelligence, labor productivity, production, service sector, economic efficiency.

Kundan kunga rivojlanayotgan sun'iy intellekt hayotning turli sohalariga kirib bormoqda, jumladan, ilm-fan, biznes va tibbiyot kabilar. Sohalarga kirib borish natijasida esa jahon iqtisodiyotida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida samaradorlikni oshirishning yangi vositasiga aylanib ulgurdi. SI tizimlari murakkab vazifalarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni



tez tahlil qilish va ish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi, bu esa mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshiradi. O'zbekistonda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish jarayoni mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi.

SI texnologiyalarining rivojlanishi va ularning keng qo'llanilishi bilan bog'liq muammolarni ham inobatga olish zarur. Ma'lumotlar maxfiyligi, ish bilan ta'minlash, texnologik qaramlik va axloqiy masalalarni hal qilish orqali sun'iy intellekt texnologiyalarining ijobiy ta'sirini maksimal darajada oshirish mumkin. O'zbekistonda sun'iy intellektning yuksalishi raqamli transformatsiya va texnologik taraqqiyot sari muhim qadamdir.¹ Raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellektning iqtisodiyotga ta'siri nafaqat mahsulot va xizmat sifatini yaxshilash, balki resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ham seziladi.

O'zbekiston sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanilishi, avvalo, sanoat va xizmatlar sohasida boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish bilan bog'liqdir. Raqamli tizimlar orqali ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring qilish, talab va taklifni prognozlash hamda logistika va ta'minot zanjirlarini optimallashtirish imkoniyati kengaymoqda. Bu esa vaqt va moliyaviy xarajatlarning qisqarishiga, mehnat unumdorligining o'sishiga olib kelmoqda. Xizmatlar sohasida sun'iy intellekt texnologiyalari mijozlar bilan ishlash jarayonlarini soddalashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash orqali samaradorlikni oshirmoqda. Masalan, bank va moliya sohasida SI asosidagi tahliliy vositalar risklarni baholash va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi, bu esa xodimlarning ish samaradorligini oshiradi.

¹O. Amanov. Sun'iy intellekt va uning mehnat bozoriga ta'siri. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024.



Sun'iy intellektning keng joriy etilishi iqtisodiyotning bir qancha tarmoqlarida ham loyihalar amalga oshirila boshladi. Iqtisodiyot tarmoqlarida SI texnologiyalarini keng joriy etish hamda rivojlantirish orqali yangi va yuqori qiymat qo'shilgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini, xizmatlar ko'rsatilishini yo'lga qo'yish maqsadida quyidagilar amalga oshiriladi:

- Bank sohasida: bank xizmatlarini ko'rsatish jarayonida mijozlarning to'lov qobiliyati hamda boshqa xususiyatlarini baholash va tahlil qilish; bank sohasida monitoring va tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlashtirish uchun intellektual texnologiyalarni rivojlantirish.
- Xizmat ko'rsatish sohasida: sun'iy intellekt algoritmlari, mashinaviy o'qitish va prognozlash usullari yordamida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini monitoring qilish hamda optimallashtirish.²

Bu texnologiyalarning bank va xizmat ko'rsatish sohalarida joriy etilishi ushbu tarmoqlarda mehnat unumdorligining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR.

SI texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan bir qatorda, mehnat bozorida muayyan muammolar ham yuzaga kelishi mumkin. Xususan, an'anaviy ish faoliyatining qisqarishi va yuqori malakali mutaxassislariga bo'lgan talabning ortishi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Shuning uchun, sun'iy intellekt texnologiyalarining samradorligini to'liq namoyon etishi uchun inson kapitaliga investitsiyalarni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning mehnat unumdorligiga ta'siridagi afzalliklar va kamchiliklar.

² <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori.



➤ **Afzalliklari.**

Sun'iy intellekt texnologiyalarining ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida joriy etilishi mehnat unumdorligining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarida SI asosida avtomatlashtirish va optimallashtirish mexanizmlarining qo'llanilishi bir ishchi hisobiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmini oshirishga xizmat qiladi. Texnologik jarayonlarning real vaqt rejimida monitoring qilinishi ishlab chiqarishdagi uzilishlarni kamaytirib, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytiradi. Xizmatlar sohasida esa SI ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirib, xizmat ko'rsatish jarayonlarini soddalashtiradi. Natijada bir xodim tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi ortib, uning sifati yaxshilanadi.

➤ **Kamchiliklari.**

Sun'iy intellekt texnologiyalarini keng joriy qilish jarayonida bir qancha cheklovlar mavjud. Yuqori texnologik infratuzilmani yaratish va joriy etish bilan bog'liq dastlabki investitsiyalar qisqa muddatda mehnat unumdorligining sezilarli o'sishini ta'minlamasligi mumkin. Texnologik jarayonlarning murakkabligi va xodimlarning raqamli kompensatsiyalarining yetarli darajada emasligi sun'iy intellekt imkoniyatlaridan samarali foydalanishni cheklaydi.

Sun'iy intellektning mehnat unumdorligiga ta'siri bir qator jihatlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ Avtomatlashtirish: SI ko'plab jarayonlarni avtomatlashtirish orqali ish unumdorligini bir qancha barobarga oshiradi va rivojlantiradi.
- ✓ Ma'lumotlarni tahlil qilish: yuqori hajmdagi ma'lumotlarni tez va samarali tahlil qila oladi va qaror qabul qilishda bir qancha ustunliklarga ega.
- ✓ Yangi imkoniyatlar: SI yangi va innovatsion g'oyali mahsulot va xizmatlarni yaratishda yordam beradi.



Umuman olganda, sun'iy intellekt ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidan tashqari barcha sohalarda ham ish unumdorligini oshirishga yordam beradi va uning rivojlanish jarayoni esa muhim ahamiyatga ega.

2025-yilga kelib sun'iy intellekt texnologiyalari global iqtisodiyot va jamiyatning ajralmas qismiga aylandi. U nafaqat ish unumdorligini oshirish, balki tibbiyot, ta'lim, moliya va sanoat sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Ma'lumot uchun, 2025-yil holatiga ko'ra, dunyo bo'ylab 57,933 ta sun'iy intellekt kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Sun'iy intellektda foydalanayotganlar soni esa 378 million kishiga yetishi kutilmoqda, bu esa 2024-yildagiga nisbatan 20% o'sishini anglatadi.³ Ko'rinib turibdiki, bu ma'lumotlar yildan yilga sun'iy intellektdan foydalanuvchilar sonini foiz ko'rsatkichlari o'sib borayotganini ko'rsatadi, buning natijasida esa ko'plab sohalarda ish unumdorligining yuqorilashiga erishiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sun'iy intellekt iqtisodiyotning ko'plab soha va yo'nalishlariga kirib borib, bu sohalarni rivojlanishiga xissa qo'shmoqda. Bu esa o'z navbatida ko'plab imkoniyatlarni yaratadi. Uning joriy etilishi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida avtomatlashtirish, optimal yechim topish va mavjud imkoniyatlarni kengaytirish orqali mehnat unumdorligini oshishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish, institutsional muhitni takomillashtirish hamda inson kapitaliga yo'naltirilgan kompleks yondashuvni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O. Amanov. Sun'iy intellekt va uning mehnat bozoriga ta'siri. "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali. 2024.
2. <https://lex.uz> O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. <https://uz.kursiv.media>

³ <https://uz.kursiv.media>